

B
0-98

BOR EKAN-DA,



YO'Q EKAN...

OQKO'NGIL CHOL VA XASIS BOY





ir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir oqko'ngil, saxiy chol bo'lgan ekan. Uning atigi bir tanobgina yeri bor ekan. Chol shu yerda kecha-yu kunduz mehnat qilib, dehqonchilik bilan kun ko'rar ekan. Bahor kelibdi. Chol yer hayday boshlabdi. Yerini haydab bo'lib, yaqindagi katta bir soyning bo'yida salqinlab o'tirsa, osmonda uchib kelayotgan bir laylak yerga qulab tushibdi. Chol qarasa laylakning qanoti singan ekan. Oqko'ngil cholning laylakka rahmi kelib, uni uyiga olib kelibdi-da, siniq qanotiga taxtakach bog'lab, tuzalgunicha uni boqibdi. Laylak sog'ayib, uchib ketibdi.

Bir kuni chol dalada ekin ekib yursa, laylak cholning ustidan pastlab uchib o'tibdi. Chol parvo qilmay ekinini ekaveribdi. Biroq laylak juda ham pastlab uchib o'tibdi. Shu uchib o'tishida uch dona tarvuz urug'ini chol ekin ekayotgan joyga tashlab ketibdi.





Oradan birmuncha vaqt o'tgandan keyin chol ekkan ekin bilan baravar tarvuz urug'lari ham unib chiqibdi. Chol ekinini vaqtida o'tabdi, sug'oribdi, chopibdi.





Shunday qilib, hosilni yig'adigan payt ham kelibdi. Bir kuni chol tarvuzdan uch donasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan.

Oqko'ngil chol o'zining yaqin qarindoshlari va oshna-og'aynilarini mehmonga chaqirgan ekan.

Bir mahal chol tarvuzga pichoq ursa, pichoq tarvuzga o'tmashdi.

Uni qo'yib, ikkinchisini so'ymoqchi bo'libdi, unga ham pichoq o'tmashdi.

Uchinchisi ham shunday bo'libdi. Chol ham, uyiga kelgan mehmonlar ham hayron bo'lishibdi.

Tarvuzni yerga urib yorib ko'rsalar, ichi to'la tilla emish. Qolgan ikkitasini ham yorib ko'rishibdi.

Ularning ichi ham tilla emish. Oqko'ngil chol sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi.

Ular ham xursand bo'lib, uy-uylariga tarqalishibdi. Uch tup tarvuzning har biri o'ntadan solgan ekan. Chol qolgan tarvuzlarni ham yig'ib olibdi. Shunday qilib oqko'ngil chol juda boyib ketibdi.

Oqko'ngil cholning boy bo'lganini eshitgan bir boy qo'shnisi undan: «Qanday qilib boyib ketdingiz?» — deb so'rabdi.

Oqko'ngil chol boshidan o'tgan voqeani unga gapirib beribdi: «Qo'shni, mening ahvolimni o'zingiz bilasiz.

Bir parcha yerim bor. Erta bahorda shu bir parcha yerni haydashga kirishdim.

Bir kuni charchab, soy bo'yida salqinlab o'tirsam, osmonda uchib kelayotgan bir laylak yerga qulab tushdi.

Qarasam, qanoti singan ekan. Rahmim kelib, ko'tarib uyga olib keldim. Qanotini taxtakach bilan bog'lab, yaxshilab parvarishladim, boqdim.



Laylak bir necha kundan keyin butkul sog'ayib uchib ketdi.

Kunlardan bir kun yer haydab, ekin ekayotsam, haligi laylak ustimdan uchib o'tdi. Men parvo qilmay ishimni qila-verdim.

Bir ozdan keyin haligi laylak yanada pastlab uchib, yerga uch dona tarvuz urug'i tashlab ketdi.

Urug'lar yerdan unib chiqdi. Ularni ham ekinlarim bilan birga parvarish qildim.

Pishib yetilgach, tarvuzlarni so'ysam, ichi to'la oltin ekan. Shunday qilib boyib ketdim».

Buni eshitgan xasis boyning juda hasadi kelibdi: «Qani endi, men ham shunday oltinlarga egalik qilsam», — deb soyga qarab jo'nabdi.

Bir vaqt u nariroqda turgan laylakni ko'rib qolibdi.





U sekin borib, poylab turib laylakning oyog'iga tayoq otibdi.

Laylakning oyog'i sinib, ucholmay qolibdi. Xasis boy darrov uni uyiga olib kelib, oyog'ini taxtakach bilan bog'lab, parvarish qilibdi.

Bir necha kundan keyin laylakning oyog'i tuzalib uchib ketibdi.

Shundan so'ng xasis boy har kuni dalaga chiqib laylakni kuta boshlabdi.

Kunlardan bir kun o'sha tanish laylak uchib kelib, ikki dona urug' tashlab ketibdi.

Urug' ko'karib chiqib, katta tarvuz solibdi. Tarvuz pishishi bilan xasis boy uni darhol uyiga olib kelibdi.

Hamma qarindosh-urug'larini mehmonga chaqirib, rosa maqtangisi kelibdi.

Tarvuzga pichoq urgan zahoti ichidan katta-katta qovog'arilar chiqib hammani talay boshlabdi.

Boy tura solib qochmoqchi bo'lgan ekan, arilar boyning hammayog'ini chaqib tashlabdi. Oqibatda boyning kallasi, burni, lablari va ko'zlari shishib ketibdi. Alamiga chidolmagan boy o'zini suvga tashlab, cho'kib ketibdi.

Oqko'ngil chol halollik bilan murodiga yetibdi, xasis boy esa o'z qilmishiga yarasha jazosini olibdi.





15. Убежания
15. № 325